

SADRIDDIN SALIM BUXORIY SHE'RLARIDA
DARAXT OBRAZI

Saidova Mohinur Yoqubjon qizi¹

¹ Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

MAQOLA
MA'LUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.10.2024

Revised: 30.10.2024

Accepted: 31.10.2024

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada shoir, tarjimon, essenavisi Sadriddin Salim Buxoriy ijodida ko'zga tashlanadigan daraxt obrazi va bu obrazni qo'llashdagi shoirning maqsadi yoritib berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*daraxt, tut, folklor,
timsol, so'z
san'atkorlari, ba'dia,
ma'naviy va lafziy
san'atlar.*

KIRISH. Sadriddin Salim Buxoriy serqirra ijodkor, zullisonayn shoir. O'z navbatida shoir ijodida ko'zga tashlanmaydigan mavzuning o'zi yo'q. Folklor an'analari, Vatanga muhabbat, ota-onalari sog'inchi, dildagi izardorlar, barcha-barchasi Buxoriy she'rlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shoir she'rlaridagi obrazlar badiiyati, motiv, ritm stilizatsiyasi, shakl va mazmun uyg'unligi, ritm, syujet, konflikt, kompozitsiya kabi shaklif, mavzu, an'ana, g'oya kabi mavzuga daxldor jihatlar ochib berilgan.

Ushbu maqolada Sadriddin Salim Buxoriy she'rlarida daraxtning timsol sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq jihatlar tahlilga tortiladi.

Shoir ijodida daraxt obrazi alohida o'rinni egallaydi. Juhon adabiyotida daraxt obrazi eng ko'p qo'llangan obrazlardan biri hisoblanadi. Ammo, har bir millat adabiyotida o'z tuprog'ida o'sgan daraxt obrazi yaratilganini ta'kidlash joiz.



Kurtaklar daraxtning uylari,
Daraxtning uylari gullaydi.

Kurtaklar daraxtning kuylari,
Kuylari iqboldan so'ylaydi.

Kurtaklar daraxtning kulgusi,
Kulgilar jaranglab berar sas.
Kurtaklar daraxtning orzusi,
Orzular ushalar basma- bas.

KURTAK

NIHOL

DARAXT

Shoir daraxning rivojlanib daraxt shakliga kelishini kurtak bilan bog'lab, obrazli ifoda etadi. Sadriddin Salim Buxoriy daraxtlar kurtak ochib, gullashini kuzatib, bu hodisani shoirona ifodalaydi. Shoir nazdida, "Kurtaklar daraxtning o'ylari", "Daraxtning o'ylari gullaydi", "Kurtaklar daraxtning kulgusi" "Kurtaklar daraxtning orzusi". Ushbu hodisani farzandi dunyoga kelishini kutayotgan onaga ham qiyoslash mumkin. Ya'ni bu yerda ona-daraxt, kurtaklar esa farzandlar timsolida.

Ushbu she'rda shoir daraxtni jonlantirish assosida TASHXIS badiiy san'atini ham yuzaga keltirgan. Ya'ni, insonlarga xos jihatlar daraxtlarga ko'chirilgan.

"Hamal- bahor. Yerning sochi maysalar,
Daraxt sochi yaproqlar erur , qizim.
Yomg'ir bo'lib har gal quyilar hamal,
Qo'li tekkan sochni etadi uzun..."

Shoir yerning sochini maysalarga qiyoslaydi. Bu o'zbek she'riyati uchun neologism birikma hisoblanadi. Shu o'rinda daraxtning sochi esa yaproqlarga o'xshatilgan. Va bunda hamal, ya'ni bahor kirib kelishi bilan sodir bo'ladigan tabiat hodisalari shoir tomonidan juda go'zal tasvirlanadi.

Umuman olganda shoir ijodida daraxt, maysalar va tabiat hodisalari asosiy obraz sifatida gavdalanadi. Ko'rindaniki, shoir daraxt obrazi orqali o'zining dil dardlarini, avvalo, el g'amalarini ifodalagan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Azimova M.S. Xalq ijodi – ilhom manbayi. "Buxoro mavjlari" jurnali 3-son, 2013-yil. –B.43-45
- 2.Azimova M.S. Buxoroning she'riy xaritasi. Filologiya fanlari doktori, professor Shoira Nematovna Axmedova tavalludining 60 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Buxoro, 2020 yil 24-26 dekabr. B.243-246
2. Xurshid Davron sayti.
4. Sadriddin Salim Buxoriy . Tanlangan asarlar 2015.